

O'SMIRLAR VA OILA MUAMMOLARI

Datqayeva Feruza ubaydullayevna

Adpi 1-Kurs Magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10281709>

Kalit so'zlar: oila, o'smirlik davri, oilaning boshqa a'zolari, munosabat, jamiyat, muammo va yechimlar,

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada o'smir yoshdagi insonlarni boshqalar bilan munosabati, muammolari, tushunchalari va ularning fikrlashi, ulardagi muammolar, tavsiya va yechimlar haqida so'z yuritilgan.

KEY WORDS: family, teenagerhood, other members of family, treatment of relation, public, problems and solution.

Annotation: this scientific article had been written about relationship of teenagers with others, challenge, conception and their personal apprehension, recommendation, suggestions and decision.

Ключевые слова: семья, подростки, другие члены семьи, отношения, общество, проблемы и решение.

Аннотация: это научная статья написано про отношение подростков с обществом, проблемы, концепция и личность, рекомендации, предложение и решение

Oila ilk munosabatlar tug'uladigan va rivojlanadigan muqaddas dargoh. Har-bir shaxs oilada o'z o'ringa ega. Oilaning kattalari bobo-buvi,ota-ona va boshqa oila a'zolaridan tashkil topgan bu kichik jamiyatda inson tug'ilgan onidan boshlab asosan oilaning kichik a'zolari yani farzandlar shaxsiyatiga tegishli chegaralarni qura boshlaydi. Har kim bu chegaralarni yorib kirish uchun majoziy ma'noda kurash olib borishi kerak. Chunki endigina fikirlashi va dunyo qarashi rivojlanib kelayotgan bolaning o'z fe'l atvori ijobiy va salbiy xususiyatlari tor va keng doirada fikirlashi, tarbiya olishi hamda jamiyat va atrofdagilardan qabul qilib o'zlashtirayotgan ma'lumotlari ularning o'smirlik davridagi hayotini belgilab beradi desak adashmagan bo'lamiz. Oilamiz ijtimoiy mitti jamiyat hisoblanib o'sib kelayotgan kelajak avlod uchun muhim ahamiyatga ega oliygoh sifatida o'rin egallaydi. Madaniy va ma'naviy qo'llab-quvattlashni, ma'sulyatni, o'z qilayotgan ishlariga javobgarlik umuman aytganda hayotga munosabatni albatta inson ilk marotaba oilasidan o'rganadi va ko'p hollarda bu olingan malumotlar bir umrlik o'zgarimas fe'l atvorni ustuni bo'lib qoladi. Xo'sh o'smirlik davrida inson oiladan nimalar olishi kerak va nega ko'p hollarda o'smirlar o'z muammolari yechimini tashqaridan qidiradi va bazan aynan oilasiga tegishli bo'lmagan shaxslar ularga yordam beroladi deya tushunishadi. Hammasi ham emas lekin biz nazarda tutgan o'smirlar ham yoq emas. Biz bunda kimni

ayblashimiz kerak? Oilan kattalarini o'zni bunda muhim va o'zgaras o'rin tutadi. Shunday ekan oilada ko'p inson istiqomat qiladimi yoki ozchilik ota-onaning o'zni va hissasi farzand tarbiyasida katta tasirga ega. Bu xususiyatlarga bog'langan holda oiladagi yosh avlod jamiyat bilan o'z munosabatini o'rnatadi. Vatanimizda farzandlar milliy va oilaviy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiya qilinadi. Bizning o'lkamizda qonunchilikda ham o'zligimizdan uzoqlashmagan holda har bir insonning manfaati hisobga olingan. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi fuqorolik kodeksining 2-moddasi birinchi qismida "Qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi" (8 -moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683 -sonli qonuni tahririda- Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21. 04. 2021 -yil. 03/ 21/ 683/ 0375 -son) deya qayd etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki jamiyatimizda har bir inson tarbiyasiga faqatgina bir jonli individ emas muhim bir shaxs sifatida qaraladi. Aynan bizning ota-bobolarimizdan qolgan avloddan-avlodga o'tib kelayotga oila ichidagi tarbiya usullari milliylikimizni qollab quvatlagan holda o'z kuchi va ta'sirini yo'qotmagan. O'g'il farzandmi qiz farzandmi tarbiyasiga alohida etibor berilgan.

Hozirda zamon bilan hamnafas holda yangi avlodni jamiyatda ijobiy o'rin egallashi uchun hammamiz harakat qilyapmiz. Avallo oila, ustoz, ota-ona bunda muhim ro'l tutganidek farzandlarda ijobiy hislatlarni ham salbiy hislat va tuyg'ularni ham avvalam bor oila ichidan boshlashimiz kerak.

O'smirlik davri bolalikdan katta hayotga qadam tashlash uchun muhim jarayon.

Bu faslda o'sib kelayotgan bolada jismoniy va ongiy hislatlar o'zgarishi kuzatiladi.

Inson vujudining fiziologik kelib chiqishi irsiyat bilan bog'liq hisoblanadi. ong'dagi va vujudagi sifat genlar jamlamasi hisoblanib bu har-bir shaxsni o'z shaklini yaratuvchi poydevor. Bu davrda fe'l-atvorda muloyimlikni o'rnini bir soniyada agressivlik egallashi mumkun. Agressiya bu xulq hususiyati bo'lib "aggre" lotin tilidan tarjima qilinganda tajovuz qilish manosida keladi. Bu jarayon ixtiyoriy va noixtiyoriy vujudga keladi va ushbu hislatlar o'smirlik davrining ajralmas qismidir. Ixtiyoriy agressiv holatda o'smir bilgan holatda atrofaga zarar yetkazishi bo'lsa noixtiyoriy agressiya uning aksi. Salbiy tajovuz bu hudbinlik, qasos, rashk va hokazolardan iborat bo'lsa ijobiy agressivlik bu o'smirning kurashuvchiligi va o'ziga nisbatan talabining bir qismi, boshqalarga

zarar yetkazmagan holda sog'lom raqobat tarzida kurashish xususiyati desak ham adashmaymiz. So'zsiz qay birinig ustun kelishi irsiyat va oilada, jamiyatda olingan tarbiyaga asoslanadi. Biz o'sib kelayotga shaxsda boshqa yanada ko'plab hislatlar haqida so'z yuritishimiz mumkun. O'smirlik davri ota-ona farzandiga yoki do'st sifatida yoki hayotidan tashqarida bo'lgan bir qondosh yaqin qarindoshi kabi o'rin tutishi mumkun. Aqilli insonar o'z oilasida kattalardan faqat yaxshi hislatlarnigina ola biladi chunki kamchiliksiz inson mavjud emas. O'smirlarimizni jamiyatga yetuk va o'rnak bo'ladigan inson sifatida yetkizib berish uchun avallo o'zimizdan ijobiy namuna yaratishimiz shart. Oiladagi muammolarni farzandlarimizga ta'sir etishiga y'ol qo'ymagan holda, ularga vaziyatni to'g'ri baholashni o'rgatishimiz kerak. Ota-onaning salbiy munosabati ham oilaviy muammolardan hisoblanib o'smir yoshdagi bolalarga shubhasiz ruhiy ham jismoniy ta'sir yetkazadi. Bunday muammolar o'smirlarda jismoniy immunitetni pasayishga olib kelsa ma'naviy tajovuzni rivojlanishining sabablaridan biri bo'lishi mumkun. Yoki oilada kattalarning bolalar o'rni qanday ekanligini, to'ng'ich va kichik yoshdagi yoki o'rtancha farzandni boshqacha ko'rishi, ularni ajratib munosabat bildirishi ham oiladagi muammolarning negizi. Farzandga oshiqcha masulyat yuklatilishi ham aksincha unga ishonch bildirmaslik ham keyinchalik salbiy ta'sirlarini alomatlarini namoyon qiladi.

Jamiyatimiz o'tmishdan qadriyatlarimizga tayangan holda hozirgi kunga hamnafas tarzda o'smirlarimizda milliy ruhdagi zamonaviy, barkamol, kuchli avlodni yetkazib berishda faol bolishi kerak. Oiladan tashqarida ham tarbiya maskanlarida farzandlarga go'daklik davridan boshlab o'z maqsadlari sari intilishini, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun va boshqa o'sib kelayotgan shaxslarga o'rnak bo'la oladigan kadr bolib yetishishi uchun bir zamindir. Har bir o'smir jamiyat hisoblanadi. Shunday ekan biz bu jamiyatda imkon boricha positiv, creativ, irodali va kuchli atmosferani sifatini yanada oshirishimiz novda kabi egiluvchan bo'lgan o'sib kelayotgan yosh o'smirlarimizga mustahkam poydevor bo'lishda bardavom bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev Ontogenez psihologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "NIF MSH" 2020. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi Toshkent Islom Universiteti.
2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi I BO'LIM. Umumiy qoidalar 1- bob Asosiy qoidalar .8-modda. Oilaviy Munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi.
3. E.N.Nuriddinov, B.T.Xaydarov, M.A.Imomov Bolalar va o'smirlarda xarakter sifatlarini rivojlantiruvchi va o'zgartiruvchi irsiy va tibbiy omillar. Alisher

Navoiy nomidagi Samarqand davlat Universiteti. O'quv qo'llanma. Samarqand-2011

4. B.T.Qodirova Bolalarning ijtimoiy moslashuvi .O'quv qo'llanma. Andijon Davlat Universiteti. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2021-yil



WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

